

SHAXS TARAQQIYOTIGA OILANING TA'SIRI

*Bekmirzayeva Nilufar Nozimjonovna**Xonobod shahar 5-maktab psixologi*

Annotatsiya: Maqolada muallif shaxni dunyoga kelishi, voyaga yetishi vajamiyatda o'z o'rnini topishida uning oilasini ota-onasini o'zni va axamiyati haqidagi fikrlarni ilmiy asosda tavsiflab bergan.

Kalit so'zlar. Shaxs, oila, ota-ona, tarbiya, jamiyat, ijtimoiy tuzum.

Har tomonlama yetuk avlodgina butun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir sinov va qiyinchiliklarni yengish, ko'zlangan yuksak marralarni egallashi mumkin. Shu bois, muhtaram Prezidentimiz yoshlarga katta umid va ishonch bilan qaramoqda. Mustaqillik bergan imkoniyatlar tufayli yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga kirayapti. Shuning uchun yurtboshimiz: "Bugungi kunda yoshlarimiz hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga dadil qadam qo'ymoqda. Men bu yoshlarga o'zimga ishongandek ishonaman", - deb ta'kidladi. Mamlakatimizda intellektual salohiyatni rivojlantirishning manbalari, xususan, oila – iste'dodli yoshlarni voyaga yetkazish va tarbiyalashning muhim o'chog'i sanaladi. Chunki, yosh avlod o'z hayoti yo'lida oilani kamolot beshigi deb hisoblaydi. Yosh avlod kamolotida oilaning o'zni va ta'siri beqiyosligini munosib baholab, insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchaning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlar va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi. Aqli raso har qanday inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu va intilishlari bilan yashaydi"¹. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishdagi dastlabki yozma manba "Avesto" ("Qat'iy qonunlar")da oilada sog'lom avlod tarbiyasining usul va vositalari, huquqiy munosabatlari haqida ma'lumot beradi. 15 yosh bola uchun balog'at yoshi hisoblanadi, unga zardo'shtiylikning qoidalari o'rgatiladi. Bu yoshda yigit yoki qiz bola turmush qurishi mumkin bo'lgan. Turmushga chiqayotgan qiz bolaning baquvvat, sog'lom, go'zal bo'lishi, bo'lajak farzandning sog'lom tug'ilishi oila mustahkamligi uchun asos hisoblangan. Ayol kishining

¹ Karimova V. M. «Oilaviy hayot psixologiyasi». Toshkent. 2006 yil. 137 b.

ma'naviy pokligi, oilada saranjom-sarishtaligi, tozalagi uning axloqiy-ma'naviy yetukligining oliy bosqichi hisoblanadi. "Avesto"da oilada tarbiya, bolani dunyoga keltirish va sog'lom qilib tarbiyalash, ayol kishining salomatligini asrash, oilada xotin-qizlarning huquqiy manfaatlarini muhofaza qilish, xomilador ayollarga e'tibor, er-xotin munosabatlarining nozik jihatlari, ersiz farzand ko'rgan qiz yoki juvonning haquhuqlari, hayz ko'rgan ayolning sog'lom turmush tarzi, tug'ilmagan bolaga yetkazilgan shikast uchun jazo va boshqa oilaviy turmush qoidalariga keng o'rin berilgan. Jumladan, xotin-qizlar salomatligini saqlash, ularga nisbatan zo'ravonlikning turli ko'rinishlari sodir etilganda gunohkorga belgilanadigan jazo qat'iy belgilab qo'yiladi. Homilador, hayz ko'rgan xotin aloqa qilgan, homilasini tushirgan, go'dakka, onaga shikast yetkazgan er, ayol, qariyaning jazosi oshkora o'limdir. Agar erkak kishi balog'atga yetmagan qiz yoki juvon kelgunga qadar o'sha qiz yoki juvonn o'z qaramog'iga olmog'i kerak. "Agar bordi-yu, er ayolni yetarlicha himoya qilolmasa va go'dakka shikast yetkazsa, bunday erning jazosi o'limdir". "Agar o'sha ayol odamlardan nomus qilib, bachadondagi tirik mevasini nobud qilsa, odam o'ldirish gunohi ayol va erning gardanidadir. Ular oshkora qatl etiladilar" ("Vandidod", 15, Farzand, 15-16-betlar). Axura Mazda saodat, go'zallik, ezgulik, ma'naviy va jismoniy sog'lom insonlarni dunyoga keltiruvchi ilohiy kuch ramzidir. U erkakning ham ayolning ham durkuni baquvvat, sog'lom xuddi shunday farzandlarni dunyoga keltirishni, shuning uchun ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amal g'oyasi orqali oilani, jamiyatni sog'lomlashtirishga, har bir sog'lom turmush tarzi asosida hayot kechirishni da'vat etadi. Yaxshi andishali, aql-zakovatli, sog'lom er oilaning ustunidir, sog'lom kelajak poydevoridir. "Bizga shunday kamyoblik baxsh aylagilki, novqiron va kuchli yorlar topaylik, toki ular tamomiy tirikligimiz davomida bilan xushlikda bo'lsinlar, bizlardan dono, xushyor va xushkalom farzandlar dunyoga kelsin". "Avesto"da hatto o'lik chaqaloq tuqqan ayol ham zamini kamsuv, giyohi serob, mollar va qo'ylar suruvi kamroq o'tadigan, marosimlar kam o'tkaziladigan, odamlar gavjum emas, suvdan, olovdan olim tinch-osoyishta joyda maxsus taomlar bilan ovqatlantirib, kiyintirib, parvarishlangan. Bunday ayolning ham sog'lom bola tuqqan ayol singari organizmi osoyishtalikni, pravirishni talab etadi, chunki u ham ko'p qon va kuch yo'qotadi. "Bachadonning ichi tozalanishi uchun, uch yo olti, yo to'qqiz jam kul aralashtirilgan kumiz ichmog'i kerak". Bunday ayol yaxshi, sifatli va kuchli ovqatlanmog'i zarur. Uch kecha issiq sut, go'sht, non, uzum sharobi ichmog'i va yemog'i kerak, zinhor suv ichishi mumkin emas. Uch kundan keyin tana va kiyim-kechaklarini kumiz va suv bilan yuviladi. Shunday qilib, ayol poklanadi. To'qqiz kecha odamlardan ayro, yolg'iz yashaydi, so'ng tana va kiyim-kechaklarini yana suv va kumiz yordamida yuvib, poklaydi. Bu ayol kiygan kiyim-boshlardan hech kim foydalanishi mumkin emas. Hadis islom olami payg'ambar Muhammad alayhis va salomning xislatlari, xatti-harakatlari, diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqida ma'lumot beruvchi didaktik

xarakterdagi ta'limot hisoblanadi. Hadislarda targ'ib qilinadigan insonlarning ma'naviyatini belgilovchi ijobiy sifatlar: saxovat, rostgo'ylik, iffat, oqibatlilik, rahm-shafqat, e'tiqod, imon, tozalik, pokizalik, bilimdonlik, halollik, sabrlilik, ishonch, qanoat, muloyimlik, latiflik, marhamat, saxiylik, sadoqat, sabotlilik, viqorlilik, salohiyat, halimlik, tavoze', hayo, tejamkorlik, sir saqlash, nonni e'zozlash, diyonat, mehmondo'stlik, mehr-oqibat, xayr-ehson, vazminlik, tadbirkorlik, himmat, bardoshlilik, xushxulqlik, to'g'rilik, shukr, vafo va boshqalar o'z ifodasini topgan. Ushbu ezgu xislatlarni balog'at ostonasda turgan qizlarimizga singdirish har bir ota-ona, ustozlarning asosiy vazifasidir. Hadislarda "Kelin tanlash vaqtida to'rtta narsaga albatta qiziqiladi: moliga, jamoliga, kasbiy mansabiga va diniga. Sen dindorini tanlagin", - deyiladi. Chunki, mol, jamol vaqtinchalik, mansab esa kelin bilan birga kelmaydi, otasining uyida qoladi, ammo imon-e'tiqod, aql-idrok, xulqu odob, irsiy tozaligi u bilan doimo hamrohdir. Ana shunday fazilatlarga ega bo'lgan ayolning farzandlarini tarbiyalash osonroq bo'ladi. Hadislarda qaraladigan inson ma'nviy va jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi xususiyatlar: o'g'irlik, zino, hayosizlik, munofiqlik, omonatga xiyonat yolg'on so'zlash, shartida turmaslik, kek saqlash, axloqsizlik, nopoklik, riyokorlik, xusumat, nohaqlik, fitna, yolg'onchilik, g'aybat, ochko'zlik, ta'magirlik, isrofgarchilik, itoatsizlik, chaqimchilik, beparvolik, kibr, gina-advat, xiyonat, razillik, baxillik, zulm, maqtanchoqlik, ikki yuzlamachilik, takabburlik, manmanlik, shuhratparastlik, shoshqoloqlik, zinokorlik, ichkilikka ruju qo'yish, harom narsalarni iste'mol qilish kabi illatlarning oila qurish ostonasida turgan yigit-qizlarga zararli jihatlarni tushuntirish, bunday illatlardan hazar qilish tuyg'ularini singdirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axborot portali.-URL: http://communication_psychology.academic.ru
2. Psixologik lug'at.-URL: <http://psi.webzone.ru>
3. Elektron ensiklopediya.-URL: <http://www.wikipedia.org>